IEN FLEMING ROMANLARIDA AVTOMOBIL NOMLARINING BADIIY-STILISTIK VAZIFALARI

Axmedova Sevar Qudratulloyevna

Buxoro davlat universiteti

Fakultetlararo chet tillar kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ien Flemingning «Casino Royale» va «Goldfinger» romanlaridagi Bentley va Aston Martin avtomobil nomlari kontekstual hamda qiyosiy usulda tahlil qilngan. Birinchi romanda avtomobil personajning shaxsiy qiziqishi va zavqlanishi bilan bog‘lansa, ikkinchisida marka-model tanlovi qahramonning ijtimoiy niqobi va xizmat vazifasiga moslashtiriladi. Tahlil transport nomining badiiy vazifasini aniqlashda egalik, personaj munosabati va syujet sharoitini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Poreyonim, marka nomi, model nomi, bilvosita xarakteristika, ijtimoiy niqob, badiiy detal, Ien Fleming.

Kirish. Avtomobil tasvirida yozuvchi predmetning umumiy nomi bilan cheklanishi yoki uning markasi va modelini aniq ko‘rsatishi mumkin. Aniq nomning badiiy qiymati matnda qanday ma’lumot bilan bog‘lanishiga qarab belgilanadi. Masalan, bir sahnada avtomobil qahramonning shaxsiy hayotini tavsiflasa, boshqa sahnada u qahramon o‘zini atrofdagilarga qanday ko‘rsatishini tushuntiradi. Bunday vazifalarni ajratish marka nomini faqat obro‘ yoki boylik belgisi sifatida talqin qilishning oldini oladi. Maqolaning maqsadi Flemingning ikki romanida Bond foydalanadigan avtomobil nomlari qahramon xarakterini qanday ochishini aniqlashdir. Buning uchun «Casino Royale»dagi Bentley tavsifi va «Goldfinger»dagi xizmat avtomobilini tanlash epizodi qiyoslanadi. Bir muallifning ayni qahramon ishtirokidagi ikki asarini tanlash farqni aniqroq ko‘rish imkonini

beradi. Har ikki holatda nomlangan avtomobil Bond bilan bog‘langan, lekin uning shaxsiy hayoti va kasbiy vazifasi bilan aloqasi turlicha tashkil etilgan.

Asosiy qism. «Casino Royale»dagi «Bond’s car was his only personal hobby» jumlasi Bond uchun avtomobil yagona shaxsiy mashg‘ulot bo‘lganini bildiradi [3]. «Only» so‘zi qiziqishning alohidaligini, «personal» esa uning personajning shaxsiy hayotiga taalluqli ekanini ta’kidlaydi. Egani bildiruvchi «Bond’s» shakli bilan birga bu so‘zlar Bentley tasvirini qahramon portretining tarkibiy qismiga aylantiradi.

Haydashga nisbatan ishlatilgan «with an almost sensual pleasure» birikmasi kuchli hissiy zavqni ifodalaydi [3]. Bu tavsifda «almost» hissiy lazzatga yaqinlikni bildiradi, «pleasure» esa mashg‘ulotning personaj uchun qadrini ochadi. Avtomobilning texnik jihatlariga oid ma’lumotlar Bondning qiziqishi nimaga qaratilganini konkretlashtiradi. Natijada Bentley personajning didi va odatlarini predmet orqali ko‘rsatadigan psixologik detal bo‘lib xizmat qiladi.

«Goldfinger» romanida esa tanlov ikki jumlada beriladi. «Bond had been offered the Aston Martin or a Jaguar 3.4. He had taken the DB III» [4]. Mazmunan, Bondga ikkita avtomobil taklif qilingan va u DB III ni tanlagan. Birinchi jumladagi majhul nisbat avtomobil tanlovi xizmat sharoitida yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Ikkinchi jumla esa Bondning taklif etilgan variantlar ichidan qilgan tanlovini qayd etadi. Ushbu parcha davomida har ikkala avtomobil Bond o‘ynayotgan badavlat va sarguzashtga moyil kishining ijtimoiy qiyofasiga mos kelishi tushuntiriladi. DB III ning kam ko‘zga tashlanadigan rangi va maxsus jihozlari tanlovning amaliy sabablarini ochadi [4]. Avtomobilning tashqi taassuroti Bondning niqobini ishonarli qiladi. Texnik tafsilotlar esa uning kuzatuv va maxfiy harakatlar uchun qanday imkoniyatga ega ekanini oldindan ko‘rsatadi. Ikki parchadagi farq, avvalo, personaj bilan avtomobil o‘rtasidagi munosabatda ko‘rinadi. «Casino Royale»da matn egani va uning hissiy munosabatini ta’kidlaydi. «Goldfinger»da esa taklif, tanlov va foydalanish sharoiti markazga chiqadi. Shuning uchun Bentleyga oid tahlilda

bilvosita psixologik xarakteristika, DB III ga oid tahlilda ijtimoiy niqob va syujetga tayyorgarlik asosiy o‘rin egallaydi.

Har ikki nom umumiy «avtomobil» so‘zi bera olmaydigan konkretlikni ta’minlaydi. Biroq konkretlikning o‘zi hali xarakteristika yoki ramzni isbotlamaydi. Masalan, Bentleyga doir talqin «yagona shaxsiy mashg‘ulot» va haydashdan zavqlanish ifodalariga tayanadi. Aston Martinga doir talqin esa tanlovning bayoni va romanda uning ortidan berilgan izoh bilan dalillanadi. Shu yo‘l bilan o‘quvchi marka haqidagi o‘z tasavvuri bilan matnda bevosita shakllantirilgan ma’noni farqlashi va yozuvchining mashina nomlari orqali ko‘zda tutgan maqsadini anglashi mumkin.

Ingliz va o‘zbek nasridagi transport nomlarini qiyoslashga ham tatbiq etiladigan mezonni beradi. Masalan, avtomobilga hissiy munosabat tasvirlangan o‘zbekcha parchada egalik, baholash va harakat ifodalarini ajratib, ularni Bentley tavsifidagi mos unsurlar bilan solishtirish mumkin. Ushbu maqolaning xulosalari tanlangan ikki epizod doirasida chiqarildi.

Xulosa. Flemingning tanlangan parchalarida avtomobil nomi Bond obrazining turli xarakteristik xususiyatlarini ochib beradi. «Casino Royale»dagi Bentley uning shaxsiy qiziqishi va hissiy munosabatini ifodalaydi. «Goldfinger»dagi Aston Martin DB III esa qahramonning tashqi ijtimoiy qiyofasi bilan xizmat vazifasini bog‘laydi. Nomning poetik vazifasini aniqlash uchun uni egalik, baholash va tanlovni bildiruvchi kontekst bilan birga o‘rganish zarur.

Adabiyotlar:

1. Fleming, I. Casino Royale. London, Jonathan Cape, 1953.
2. Fleming, I. Goldfinger. London, Jonathan Cape, 1959.
3. https://shop.penguin.co.uk/
4. https://www.astonmartinf1.com/api/news/007/the-history-of-britains-finest-partnership-james-bond-and-aston-martin